

QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATLARI MAXSUS PROFILAKTIKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xudoyqulov Eldorbek Abdunabi o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 317 guruh kursanti.

Annotatsiya: *Profilaktika inspektorining qasddan odam o'ldirish jinoyatlari maxsus profilaktikasini amalga oshirishning tushunchasi, o'ziga xos jihatlari, amalga oshirilishi belgilangan chora-tadbirlar va uni amalga oshirish mexanizmlari, ushbu faoliyatni amalga oshirishdagi muammo va kamchiliklar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *huquqbuzarlik, jinoyatchilik, jazo tizmi, jamoat joyi, qasddan odam o'ldirish, qasd, ehtiyotsizlik, jazoga hukm qilingan shaxslar, voyaga yetmagan shaxs, qonunchilik normasi.*

Xuquqiy demokratik davlatda inson tinch, osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun birinchi navbatda xavfsizlik taminlanishi, uning xuquqlari va qonuniy manfaatlari, qadr-qimmati, hayoti va sog'lig'i xar qanday tajovuzlardan ximoya qilingan bo'lishi shart. Shunday ekan, davlat, uning organlari jamoat xavfsizligiga, insonning huquq va erkinliklariga xamda hamda qonun bilan ximoya qilingan barcha ijtimoiy munosabatlarga qaratilgan xar qanday tajovuzlarni, shu jumladan sodir etilayotgan jinoyatlarni, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, kuchsizlantirish, ularga to'siqlar qo'yishga qaratilgan barcha zaruriy choralarni amalga oshirish kerak. "Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat xolatiga o'tish korrupsiya va uyushgan jinoyatchilik kabi jirkanch xodisa bilan birga yuz bergan. Shu bilan birga, jinoyatchilikning o'sishi nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga xam bevosita maxdid tug'diradi". Umumiy jinoyatchilikning alohida, eng og'ir va o'ta xavfli ajralmas qismi bo'lgan shaxs hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar xam bundan mustasno emas.

Demokratik jamiyatda jinoyatchilikka, shu jumladan shaxs hayotiga tajovuz qilish jinoyatlariga qarshi kurash nafaqat jinoyat-huquqiy vositalar balki ularning oldini olish uchun shaxs shakllanishiga va tafakkuriga salbiy tasir qiluvchi omillarni aniqlash, bartaraf etish, kuchsizlantirish, vujudga kelishiga to'sqinlik qilishga oid kompleks choralarni qo'llash bilan xam amalga oshiriladi. Bu esa bugungi kunda qasddan odam o'ldirish qaratilgan jinoyatlarni sodir etayotgan shaxslarning jinoiy yo'lni tanlashga olib kelgan ijtimoiy hayotning barcha soxalaridagi xodisa, voqea va jarayonlarni, ular o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos qonuniyatlarini chuqur va har tomonlama tahlil qilishni talab etadi.

Odam o'ldirish – qasddan, xuquqqa xilof ravishda yoki ehtiyotsizlik orqasida boshqa bir kishini hayotdan mahrum qilishdir. Odam o'ldirishning obekti boshqa shaxsning hayoti sanaladi. Shu sababli chaqaloq, kekxa, sog'lom yoki nosog'lom

odamni hayotdan mahrum qilishga qaratilgan har qanday harakat “odam o’ldirish” deb tan olinadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, shaxsning huquq va erkinliklari turli huquq sohaslarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo’lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo’llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Jinoyat kodeksining «Shaxsga qarshi jinoyatlar» bo’limida hayotga, sog’liqqa qarshi, hayot yoki sog’liq uchun xavfli, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa, shaxsning ozodligi, sha’ni, qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo’lib, bu jinoyatlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug’diradi.

Darhaqiqat, insonning hayoti va sog’lig’i shaxsning bebaho boyligi hisoblanadi va uni bu boyliklardan mahrum etilishi yoki ularga shikast yetkazilishi shaxs uchun fojia hisoblanadi. Inson yashar ekan, hayotdan, uning ne’matlaridan bahramand bo’lib yashashga intiladi, hayotdan mahrum qilingan shaxsning o’rnini hech narsa bilan to’ldirib bo’lmaydi. Insonning sog’lig’iga zarar yetkazilishi unga jismoniy, axloqiy, ruhiy azoblar berib, uning hayotiy faoliyatini cheklab qo’yadi. Insonni hayotdan mahrum qiliish asnosida keltirilgan zararni xech narsa bilan qoplab bo’lmaydi, jabrlanuvchiga va uning yaqinlariga qaytarib bo’lmaydigan juda og’ir musibat va zarar keltiradi. Bu esa og’ir jinoyatni sodir yetgan subektning jamiyat uchun o’ta xavfliligidan dalolat beradi. Chunki u o’zining yoki o’zganing maqsadlari uchun boshqa shaxsni hayotdan mahrum qiladi. Shuning uchun ham odam o’ldirish kishilarning axloqiy tushunchalariga zid bo’lib ularning g’azabiga duchor bo’ladi xamda qattiq jazolanishiga sabab bo’ladi va boshqa muxim xuquqiy oqibatlarni vujudga keltiradi.

Agar shaxs o’z hayotiga o’zi suiqasd qilsa uning bu xatti-xarakatlari odam o’ldirish deb baxolanmaydi, ammo jinoyat xuquqida axloqiy g’ayritabiiy xol sifatida qoralanadi. Bunday jinoyatlarning obekti inson hayotidir. Qonun inson hayotini faqatgina biologik protsess sifatida ximoya qilbgina qolmasdan, balki, eng avvalo ijtimoiy munosabatlar manbasi sifatida qaraydi. Jamiyatda xar qanday insonning hayoti, uning yoshi, sog’lig’i, qobilyati va boshqa manfaatlari bir xil ximoya qilinadi.

Profilaktika inspektorining qasddan odam o’ldirish jinoyatlarning maxsus profilaktikasiga doir faoliyatining o’ziga xos xususiyatlari profilaktika inspektori o’z vakolatlari doirasida, g’ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar, jinoyat sodir etishga moyil bo’lgan, jinoyat sodir etgan shaxslar haqida ish (o’qish) joyidagi ish beruvchini (ma’muriyatni), yashash joyidagi fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organini g’ayriijtimoiy xulq-atvorning va sodir etilgan jinoyatning holatlarini, shuningdek ularga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni ko’rsatgan holda xabardor qilishi shartligi.

Profilaktika inspektorlari g’ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo’lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar haqida ish (o’qish)

joyidagi ish beruvchini (ma'muriyatni), yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga esa ogohlantirish beradi. Sababi ushbu holatda sodir etilgan huquqbuzarliklar sababi va shart-sharoitlari bevosita g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxs, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxsning o'qish, ish yoki yashash joyidan biridagi muhitga to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) aloqador bo'lmasligi mumkin. Va aynan shuning uchun ham xabardor qilinuvchi g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxs, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan qo'l ostidagi xodim, nazoratidagi o'quvchi va mahalla fuqarosining jamoa muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Berilgan xabar asosida ular ichki imkoniyati yoki mehnat kelishuviga binoan shartnomani bekor qilishi, murabbiy biriktirishi yoki yakka tartibda tarbiyaviy ishlarni olib borishi yoki boshqa harakatlarni amalga oshirishlari mumkin.

Taqdimnomada esa tegishli davlat organiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga majburiyat yuklatilib huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf qilishlari talab etiladi. Chunki ushbu sabab va sharoitlar aynan ularning faoliyatidagi kamchiliklar, xatoliklar yoki e'tiborsizliklar deb baholanadi.

Profilaktika inspektori ma'muriy hududda g'ayriijtimoiy xulq-atvorning shakllanishiga yoki qasddan odam o'ldirish jinoyatlarning profilaktikasini tashkil etishda, sodir etilishini taqozo etayotgan sabablarni va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaganda, ularni bartaraf etish yuzasidan korxonalar, muassasa, tashkilot hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga hududiy ichki ishlar organi boshlig'i orqali, vazirliklar va qo'mitalarga esa Ichki ishlar vazirligi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdimnoma kiritiladi.

Mahallalarda olib borilayotgan targ'ibot, huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan tushintirish ishlari olib borilishi, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi muammolar yoki o'zaro pul oldi-berdisi, uy-joy masalalari kabi kelishmovchiliklar vaqtida aniqlanib, o'z vaqtida muhokama qilinishi kabi tadbirlar natijasida oila-turmush munosabatlari doirasidagi notinchliklarning oldi olinishiga erishilgan.

Ma'muriy hududda profilaktika (katta) inspektori jinoyatlar va huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyatini o'zining kunlik va oylik ish rejasi asosida amalga oshiradi. Yuqori turuvchi hududiy ichki ishlar organining tasdiqlangan dasturi, rejasi va jadvallari asosida, shuningdek sohaviy xizmatlarning hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan belgilangan tartibda tuzilgan o'zaro kelishuvlarga binoan amalga oshiradi. Profilaktika (katta) inspektori jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyatining chora-tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish jarayoniga ichki ishlar

organlarining sohaviy xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini, fuqarolarni jalb etishi mumkin.

Shuningdek, ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tomonidan tashkillashtirilayotgan huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyati chora-tadbirlariga profilaktika (katta) inspektori jalb etilishi mumkin. Ma'muriy hududda profilaktika (katta) inspektori tomonidan amalga oshirilgan jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyati chora-tadbirlari natijalari haqidagi ma'lumot hamda hisobotlar ichki ishlar organi huquqbuzarlarning oldini olish xizmatlarida umumlashtiriladi va prokuratura huzuridagi muvofiqlashtiruvchi kengashga hamda yuqori turuvchi organga taqdim etib boriladi.

Profilaktika inspektorlarining qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining maxsus profilaktikasini amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratishi muhim hisoblanadi:

- fuqarolarni jamiyatda o'rnatilgan qoidalarga rioya etish hamda ularni qonunga hurmat ruhida tarbiyalashda;

- shaxsda endi shakllanayotgan va rivojlanayotgan g'ayriijtimoiy salbiy hulq-atvorni to'xtatish, zararsizlantirish;

- sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishda;

- jinoyat yoxud huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilmasligiga;

- korxonada, tashkilot, muassasalarda qonunchilikka rioya etishni (yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, pasport tizimi qoidalariga rioya etish, mayda tashmachilik v.x.k.) ta'minlash;

- alohida turdagi jinoyatlarning (giyohvandlik, diniy ekstremizm va terrorizm, odam savdosi va axloq-odob doirasidagi huquqbuzarlik) oldini olish bo'yicha;

- turli yashirin yo'llar bilan, shu jumladan xizmat hududiga turli noqonuniy (kontrabanda) maxsulotlarining kirib kelishining oldini olish v.x.k.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari bir qanchamaxsus profilaktik tadbirlarni amalga oshirmoqda. Maxsus profilaktika tadbirlarni o'tkazishda ichki ishlar organlarining boshqa xizmat sohalari ham jalb qilinib hamkorlikda olib boriladi. Bundan tashqari jamoatchilik vakillari ham jalb qilinib keng hamkorlik amalga oshiriladi. Masalan, ichki ishlar organlari tizimlarida o'tkaziladigan «Pasport» va «Spitamen» maxsus tadbiri ham o'tkaziladi. Bunda ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari bilan birgalkda PPX va JTSX, M va FRB, YHXX, JQD va boshqa xizmatlar, jamoatchilikdan fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar yig'inida faoliyat olib boradigan komissiyasilar va hududdagi karxon, tashkilot va muassasalar, ta'lim muassasalarining yotoqxonalar, mehmonxonalarning rahbarlari va boshqalar bilan hamkorlik qilinadi.

Profilaktika inspektorining qasddan odam o'ldirish jinoyatlarning maxsus profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi:

birinchidan, profilaktika inspektorlari aholini huquqbuzarliklardan himoya qilishni ularning yashash joylarida doimiy va uzluksiz amalga oshirishida;

ikkinchidan, profilaktika inspektorlari muayyan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etishining asosiy sababi bo'lgan hayotdagi, ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy, oila-turmush sohasidagi muammolarni bamaslahat o'zaro hamkorlikda hal etishida;

uchinchidan, profilaktika inspektorlari hayotda adashgan, jamiyatda o'z yo'lini topa olmayotgan, yordamga muhtoj fuqarolarga amaliy yordam ko'rsata olishida;

to'rtinchidan, ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari va huquqni muhofaza qilish organlari bugungi kunda jamiyat uchun eng xavfli bo'lgan uyushgan jinoiy tuzilmalar, shu jumladan ekstremistik-terroristik tashkilotlar a'zolari haqida ushbu xizmat orqali yetarli ma'lumotlarni o'z vaqtida olabilishida;

beshinchidan, qasddan odam o'ldirish jinoyatlarning viktimologik profilaktikasini tashkil etishda eskicha "jinoyat sodir etilgandan keyin uni sodir etgan shaxsni fosh etish" usulidan, yangicha "hayot tarzi, yurish-turishidan jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan yoki jinoiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan shaxslarni aniqlash, birinchi navbatda ularning jinoyat sodir etishiga yo'l qo'ymaslik, agarda ular jinoiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lishsa ularni fosh etish" usulini qo'llashga qodirligida;

oltinchidan, qasddan odam o'ldirish jinoyatlarning viktimologik profilaktikasini tashkil etishda jamoatchilikning bevosita ishtirok etishiga keng yo'l ochib beraolishida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi xususiyatlardan tug'ri foydalana olish ko'nikmasi profilaktika inspektorlariga jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyatida samarali yunalishni tashkil etishga va o'z kasb mahoratini oshirishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. Таштемиров А. Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш давлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – С. 133-139.

4. Абдухалилов Х. Д. Ў., Валиев Б. Б. Ў. Босқинчилик жиноятларини профилактика қилишнинг долзарб масалалари //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 116-119.

5. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жинойтларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

6. Nasilloev A. The absence of civil conflicts-a priority direction in the activities of internal affairs bodies in ensuring the rule of law //American journal of education and learning. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 770-776.

7. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.

8. Насиллоев А. Полиция ходимининг талаби тушунчаси ва унинг аҳамияти //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 113-115.

9. Таштемиров А., Юлдошев Х. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 17. – С. 55-61.

10. Зиёдуллаев М., Абдуллаев Ф. Ички ишлар органлари томонидан қўлланиладиган маъмурий чеклаш чоралари тушунчаси, моҳияти ва турларига оид айрим мулоҳазалар //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 9-15.

11. Тоштемиров А. Киберфирибгарлик билан боглик жинойтларнинг пайдо булиш ва ривожланиш тарихи //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – С. 11.

12. Abduxalilov H. D., Xusanova M. M. Voyaga etmagan jinoyatchining shaxsi //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 146-148.

13. Насиллоев А. Ички ишлар органларининг лицензиялаш ва хабардор қилиш тартибидаги назорат ваколатлари ва уларни такомиллаштириш масалалари //Наука и инновация. – 2024. – Т. 2. – №. 38. – С. 23-25.

14. Abduxalilov X. et al. Profilaktika inspektorining qo 'shmachilik qilish va fohishaxona saqlash bilan bog 'liq jinoyatlar bo 'yicha tezkor qidiruv bilan hamkolrligini takomillashtirish //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 78-84.